

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.23.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 658.3 (575.1)

MUXAMEDOVA MOXIGUL XUSANOVNA

OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI
BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.13 - "Menejment"

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun
yozilgan
DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: i.f.d., professor
Hakimov Hakimjon Abdullo og'li

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	13
1.1. Oliy ta'lim tizimida akademik faoliyatni boshqarishning nazariy-konseptual asoslari.....	13
1.2. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning ijtimoiy- iqtisodiy ahamiyati.....	29
1.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishda ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalari va ularning o'ziga xos xususiyatlari.....	48
Birinchi bob bo'yicha xulosalar.....	55
II BOB. OLIY TA'LIM TASHKILOTLARIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNING JORIY HOLATI VA BOSHQARUV SAMARADORLIGI TAHLILI.....	57
2.1. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning joriy holatini tahlil qilish.....	57
2.2. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatning asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini tahlil qilish.....	76
2.3. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishda akademik erkinlik va moliyaviy mustaqillik holatini baholash	94
Ikkinchi bob bo'yicha xulosalar.....	109
III BOB. OLIY TA'LIM TIZIMIDA AKADEMIK FAOLIYATNI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	111
3.1. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik erkinlik darajasini oshirishga strategik yondashuvlar ishlab chiqish.....	111
3.2. Oliy ta'lim tashkilotlarida "Registrator ofisi" faoliyatini tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berish	119
3.3. "Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi" doirasida oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilab berish.....	140
Uchinchi bob bo'yicha xulosalar.....	152
Xulosa.....	154
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	157

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon oliy ta'lim xizmatlari bozori so'ngi yillarda o'zgarishlar va yangi talablar bilan yuzlashmoqda. Global iqtisodiy rivojlanish, texnologik yangiliklar va raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'limning sifatini va samaradorligini oshirishni talab qilmoqda. "Jahon oliy ta'lim xizmatlari bozori 2024-yilda 828,85 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 2026-yilda 929,47 milliard dollarni, 2034-yilga kelib 2,557,93 milliard AQSh dollariga yetishi prognoz qilinmoqda. Bozorning o'rtacha o'sish sur'ati 2026-yildan 2034-yilgacha 11,93 foizga prognoz qilinmoqda".¹ Mazkur holarlar jahon bo'ylab oliy ta'lim tizimlarining o'sishi va global ta'lim bozorida yangi imkoniyatlar yaratilishini ko'rsatadi. Ta'lim tizimining zamonaviylashuvi, o'quv dasturlarining diversifikatsiyasi va yangi pedagogik yondashuvlar xalqaro miqyosda raqobatbardosh ta'lim tizimlarini yaratishga bo'lgan talabni kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda, oliy ta'lim tizimlarida samarali menejment amaliyotlarini qo'llash asosida iqtisodiy samaradorligini oshirish va boshqaruvda zamonaviy usullarni qo'llash mamlakatlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Jahonda kechayotgan global raqobatda oliy ta'lim tizimining barqaror rivojlanishi va xalqaro maydonda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun akademik faoliyatni samarali boshqarish masalasi jahon miqyosida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shunga ko'ra oliy ta'lim tashkilotlari o'z faoliyatini strategik rejalashtirish, akademik erkinlikni ta'minlash, o'quv yuklamalarini optimallashtirish, hamda ta'lim sifati monitoringi orqali samaradorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, QS va Times Higher Education xalqaro reytinglarida yuqori o'rinlarni egallab kelayotgan universitetlarning tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, akademik faoliyatni tizimli boshqarish - bu ta'lim jarayonining raqamlashtirilishi, talabalarni jalb etishning ilmiy asosda tashkil etilishi, moliyaviy

¹ <https://www.grandviewresearch.com/> hisobotidan olingan ma'lumotlar.

barqarorlik va resurslardan samarali foydalanish mexanizmlarini takomillashtirish bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekistonda oliy ta'lim tashkilotlari faoliyatini kengaytirish va oliy ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. "Oliy ta'limni 2030-yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasi"da belgilangan strategiyaning asosiy maqsadlardan biri sifatida "Dunyoning eng nufuzli 1000 ta oliy ta'lim tashkilotlari reytingiga 10 ta oliy ta'lim tashkilotini kiritish, ilmiy tadqiqotlarning samaradorligini oshirish va oliy ta'lim tashkilotlarida ilmiy salohiyatni 70 foizga yetkazish, 30 ta oliy ta'lim tashkilotining ta'lim dasturlarini xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazish, oliy ta'limli mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish va yoshlarning oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini kamida 50 foizga yetkazish"² belgilangan. Ma'lumki, "2016 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 9% dan 47,7% gacha oshdi"³, biroq bu qo'yilgan maqsadga erishish uchun oliy ta'limning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan boshqaruvni samarali tashkil etish, strategik yondashuvlarni ishlab chiqish talab etiladi. Shu bilan birga, akademik boshqaruvda innovatsion texnologiyalarni joriy yetish, korporativ hamkorlikni kuchaytirish va xalqaro talabalarning o'quv jarayoniga integratsiyasini qo'llab-quvvatlash kabi yo'nalishlar ham ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-son "Oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 2-fevraldagi PQ-54-son "Ta'lim

² 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari

³ O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasi ma'lumotlari

sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son "Ma'muriy islohotlar doirasida oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son "Ilmiy-metodik va tadqiqot ishlari sifatini oshirish orqali ta'lim tizimini kompleks rivojlantirishni jadallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida", 2021-yil 24-dekabrda PQ-61-son "Davlat oliy ta'lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 11-iyuldagi 415-son "Oliy ta'lim tashkilotlari rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 2-maydagi 181-son "Davlat oliy ta'lim muassasalari, Respublikadagi xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari talabalarini moddiy hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 3-oktabrdagi 559-son "Oliy ta'lim tashkilotlarida masofaviy ta'lim shaklini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda ushbu sohaga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsion tadqiqot ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Oliy ta'lim tashkilotlarida **akademik faoliyatni boshqarish** jarayonini nazariy jihatlarining iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirishdagi ahamiyatini o'rganish uzoq xorijiy mamlakatlar olimlaridan A. Fayol, F. Teylor, M. Veber, Ch. Barnard, P. Druker, G. Mintzberg, D. McGregor, A. Maslou, F. Kotler, G. Armstrong kabilarning ilmiy qarashlarida o'z ifodasini topgan. Ular boshqaruvni tashkil etish, mehnat taqsimoti, samaradorlik,

inson omili va rahbarlik uslublarining tizimli asoslarini ishlab chiqish orqali zamonaviy boshqaruv konsepsiyalarining poydevorini yaratganlar⁴.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari olimlaridan Аникеева Н.П., Байденко В.И., Богуславский М.В., Моисеева Н.К., Конышева М.В., Лапыгин Ю.Н., Харисов Ф.Ф., Котлярова М.Ю., Прокопенко Е.С., Ямбург Е.А., Пископпель А.А. va boshqalar oliy ta'lim tashkilotlarida boshqaruv strategiyalari va

⁴Fayol, H. Administration industrielle et générale: Prévoyance, organisation, commandement, coordination, contrôle. — Paris: Dunod, 1916.; Taylor, F. W. The Principles of Scientific Management. - New York: Harper & Brothers, 1911. Weber, M. Economy and Society: An Outline of Interpretive Sociology. - Berkeley: University of California Press, 1978.; Barnard, C. I. The Functions of the Executive. -Cambridge, MA: Harvard University Press, 1938. Drucker, P. F. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. -New York: Harper & Row, 1973. Mintzberg, H. The Nature of Managerial Work.- New York: Harper & Row, 1973. McGregor, D. The Human Side of Enterprise. - New York: McGraw-Hill, 1960. Maslow, A. H. Motivation and Personality. - New York: Harper & Row, 1954. 5Прокопенко Е.С. Цифровые технологии в управлении образованием.-Москва: Юрайт, 2022-// И.Ю. Жданкина - “Состояние рынка образовательных услуг” // Аникеева Н. П. Психология общения.-Москва: Просвещение, 2019.-256 с.// Байденко В. И. Болонский процесс: структурные реформы высшего образования. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов, 2020.-312 с. // Богуславский М. В. Управление образовательными системами: теория и практика.-Москва: ИНФРА-М, 2021. – 368 с.// Моисеева Н. К. Цифровая педагогика и электронное обучение: современные технологии.- Москва: Юрайт, 2022. – 289 с. // Конышева М. В. Педагогическое проектирование в высшей школе. – Санкт-Петербург: Питер, 2020. – 224 с. // Лапыгин Ю. Н. Менеджмент в образовании: современные модели и технологии. – Москва: КноРус, 2018-240 с. // Харисов Ф. Ф. Инновационные технологии в образовании.- Казань: Магариф, 2019. – 210 с. //Котлярова М. Ю. Управление качеством образования в вузе. – Москва: Проспект, 2020.-280 с. 6Zaynutdinov Sh.N., Ochilov A.O. Oliy ta'lim muassasalarini boshqarish samaradorligini baholash. Iqtisodiyot va ta'lim.-2010.-2-b.; Икрамов М.А. Проблемы становления рынка образовательных услуг в Республики Узбекистан/Стратегия действий Республики Узбекистан: макроэкономическая стабильность, инвестиционная активность и перспективы; Abdurahmanova G., Mirzaliyev S. Oliy ta'lim transformatsiyasining tashkily-iqtisodiy mexanizmlari //Raqqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari.-2023. -T. 3. - №. 3.- С. 25-27; Yo'ldoshev N.K. Menejment asoslari va biznes reja. 2017. Adizov B.R. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlari. Ijtimoiy fanlarda innovatsiya. onlayn ilmiy jurnali.-2022; Askarov A. Oliy ta'lim muassasasida ta'lim sifati monitoringini takomillashtirishning ayrim jihatlari. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал. – № 3.-2022;// Djurabayev O.J. Strategic growth of global companies in contemporary environments.“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali,(2025). №3, 179–183. M.X. Saidov (hammualliflikda) — Oliy ta'lim menejmenti va iqtisodiyoti (qo'llanma). Qosimova D.S. To'qimachilik korxonalarida sifatni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarni baholash. //“BIZNES-EKSPERT”, №5, 2019,19-23 b.// Norkulov S.T. Ta'lim muassasalarini raqqamlashtirish asosida samaradorligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan dolzarb muammolar. Journal of new century innovations 25.4, 2023;- Yusupova D.T. Ta'lim tizimi sifatini boshqarishda rahbar faoliyatini izchil amalga oshirish yondoshuvlari.// Muta'fakkur ilmiy jurnal. 2025-yil, yanvar, № 31-son, 68-73 betlar. <https://journals.indexcopernicus.com/search/details?id=123026&lang=ru/> 112 6.// Yusupova D.T., M.P. Eshov Boshqaruv tafakkuri evolyutsiyasi-darslik.2025. 303 b. // Рахимова Д.Н. Перспективы развития высшего образования в Узбекистане. International Scientific and Practical Conference World science 2017.- Vol. 2.-No. 1.- 49-52 pp. ROST; Саидов М.Х. Цифровизация образования в аспекте инновационного развития Республики Узбекистан, 2020. Karlibaeva R., Yakhshiboyev R.*Innovative approaches to sustainable business development in the era of digital transformation*. Innovative Economics and Management, 2024, Vol. 11, No. 2, pp. 101-108.Ergashxodjayeva Sh.D. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati va raqqatbardoshligini oshirish yo'nalishlari. Science and innovation. 2023; 2 (Special Issue 7): 42-6-b.;Zaynutdinov Sh., Z. Ashurov Korporativ boshqaruv.-Tashkent, 2010., Hakimova M. Oliy ta'lim muassasalarida ta'limning sifati va samaradorligini oshirish – davr talabi. Архив научных исследований 3, 2020;

zamonaviy oliy ta'lim tashkilotining raqobatbardoshligini ta'minlash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar⁵.

Tashkiliy menejment va O'zbekiston oliy ta'lim tizimida boshqaruvning nazariy-uslubiy jihatlari va tashkiliy masalalari Sh.N. Zaynutdinov, D.S.Qosimova, D.T. Yusupova, M.P. Eshov, A.Sh. Bekmurodov, R.X. Karlibayeva, S.S. Gulyamov, M.A. Ikramov, N.K. Yo'ldoshev, G.Q.Abdurahmonova, Z.A.Xakimov, H.A. Hakimov, D.X. Nabiyev, O.J. Djurabayev, D.N. Raximova, R.A. Raxmanbayeva, M.X.Saidov, Z.A. Ashurov, Sh.J. Ergashxodjayeva, M.F. Xakimova, B.O. Tursunov, Q.Q. Qurolov⁶, B.N. Urinov kabi olimlar tomonidan ko'rib chiqilgan va boshqalar tomonidan keng o'rganilgan bo'lib, ular zamonaviy boshqaruv va raqamli integratsiya strategiyalaridan samarali foydalanish uchun mavjud tashkiliy-huquqiy hamda metodik mexanizmlar yaratish borasida takliflar berganlar. Biroq, mazkur olimlarning tadqiqotlari aynan akademik faoliyatni boshqaruv samaradorligini oshirish, registrator ofis va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga qaratilgan tadqiqotlarga e'tibor qaratilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq AL-7723051332- raqamli «Oliy ta'lim tizimini baholashda miqdor va sifatga oid majmuaviy tadqiqotlar metodologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarish samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy asoslangan takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Ashurov Z.A. Zamonaviy korporativ boshqaruv-Tashkent, 2021.- 246 b. ISBN 978-9943-7664-3-3 Qurolov Q.Q. Bozor munosabatlari sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimining takomillashuvi qonuniyatlari.-T., TDIU, 2016.

zamonaviy iqtisodiyot sharoitida oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini o'rganish hamda ularning zamonaviy rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish;

oliy ta'lim tizimida akademik boshqaruv mazmunini va uning ta'lim sifati, samaradorlik hamda raqobatbardoshlik bilan o'zaro bog'liqligini tavsiflash;

akademik boshqaruv samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy tashkiliy, axborot va inson resursi omillarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini baholash;

ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasida oliy ta'lim boshqaruvi va akademik erkinlikni ta'minlash mexanizmlarini tahlil qilish hamda ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish yo'llarini aniqlash;

O'zbekiston oliy ta'lim tizimida akademik boshqaruvning institutsional asoslarini o'rganish va "Registrator ofisi" modelining joriy etilishi samaradorligini baholash;

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida akademik faoliyatni boshqarish tizimini o'rganish, uning tashkiliy tuzilmasi va boshqaruv mexanizmlarini tahlil qilish;

akademik boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar hamda O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida raqamli boshqaruv infratuzilmasini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tashkilotlari, xususan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tanlangan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot davomida ilmiy bilish usullari, tizimli tahlil (deduktsiya, induktsiya, tahlil, sintez va boshqalar), grafik, statistik hamda ekonometrik tahlil va prognozlash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "akademik faoliyatni boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmuni oliy ta'lim tashkilotida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va o'quv-metodik jarayonlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda natijadorligini baholash orqali inson kapitali rivojlanishi, ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim tashkilotlari akademik guruhlarida shakllantiriladigan talabalar soni, shartnomalar miqdori va o'quv yuklamalari xajmining optimal chegaraviy miqdorlarini elastiklik koeffitsienti qiymatlarining ($L \approx 1$) muvozanatli holatida professor-o'qituvchilar "Optimal akademik yuklama"larining muvozanat modeliga ko'ra belgilash ($522 \text{ soat/yil} \leq L_{\text{opt}} \leq 530 \text{ soat/yil}$) asosida iqtisodiy va ilmiy faoliyatlar samaradorligini oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning akademik faoliyatidagi qo'shimcha xizmat turlarini o'zaro uyg'un boshqarishga asoslangan "Registrator ofisi" tizimini joriy etish orqali boshqaruv xodimlarining foydali ish koeffitsientini oshirish taklifi asoslangan;

O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida qabul darajasi, akademik guruhlarini shakllantirishda talabalar soni, shartnomalar miqdori va o'quv yuklamalari xajmining past, o'rta va yuqori stsenariylari asosida 2030-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

oliy ta'lim tashkilotlarida akademik erkinlik va innovatsion boshqaruv o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ifodalovchi kontseptual model ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tashkilotlarida "Registrator ofisi" faoliyatini baholash mezonlari va indeksli model ishlab chiqilgan;

akademik boshqaruv samaradorligini baholashning kompleks yondashuvi ishlab chiqilgan;

oliy ta'lim tizimida akademik faoliyatni boshqarish bo'yicha ishlab chiqilgan regressiya va prognoz modeli 2025-2030 yilgacha talabalar sonining 55,7 foizga

ortishini ilmiy asosda aniqlab, boshqaruvni rejalashtirish va resurslardan samarali foydalanish uchun amaliy asos yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning nazariy va amaliy jihatlarini tizimli, qiyosiy hamda statistik tahlil asosida o'rganish, tadqiqotda ilmiy abstraktsiya, induksiya-deduktsiya, ekonometrik tahlil va prognozlash usullarini qo'llash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmon va qarorlari, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi hamda xorijiy va mahalliy olimlar ishlaridan foydalanish natijasida ishlab chiqilgan ilmiy xulosalar va tavsiyalar nazariy hamda amaliy asoslanganligi orqali namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarishning nazariy asoslari, boshqaruv samaradorligini oshirishga qaratilgan kontseptual yondashuv va uslubiy tamoyillardan oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, akademik erkinlikni kengaytirish va ta'lim sifatini boshqarish mexanizmlarini ilmiy asosda shakllantirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar, tahliliy modellardan hamda ko'p omilli tahlil natijalaridan oliy ta'lim tashkilotlarda akademik boshqaruv samaradorligini baholash, monitoring jarayonlarini takomillashtirish, optimal akademik yuklama va samaradorlik ko'rsatkichlarini prognozlash, shuningdek, ishlab chiqilgan kontseptual modeldan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti hamda boshqa oliy ta'lim tashkilotlarida strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish, akademik jarayonlarni optimallashtirish va raqamli boshqaruv mexanizmlarini joriy etishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim tashkilotlarida akademik faoliyatni boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "akademik faoliyatni boshqarish" tushunchasining iqtisodiy mazmunini oliy ta'lim tashkilotida ta'lim, ilmiy-tadqiqot va o'quv-metodik jarayonlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish, nazorat qilish hamda natijadorligini baholash orqali inson kapitali rivojlanishi, ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida takomillashtirish bo'yicha nazariy-uslubiy ishlanmalardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Ta'lim marketingi" nomli o'quv qo'llanmani ishlab chiqishda foydalanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2025-yil 16-aprel sanasidagi 151-sonli buyrug'iga asosan). Mazkur taklifning amaliyotda joriy etilishi natijasida talabalarda inson kapitali rivojlanishi, ta'lim sifati va iqtisodiy samaradorlikni ta'minlovchi boshqaruv tizimi sifatida takomillashtirilgan "akademik faoliyatni boshqarish" tushunchasi yuzasidan nazariy bilimlarni kengaytirish imkoni yaratilgan;

oliy ta'lim tashkilotlari akademik guruhlarida shakllantiriladigan talabalar soni, shartnomalar miqdori va o'quv yuklamalari xajmining optimal chegaraviy miqdorlarini elastiklik koeffitsienti qiymatlarining ($L \approx 1$) muvozanatli holatida professor-o'qituvchilar "Optimal akademik yuklama"larining muvozanat modeliga ko'ra belgilash ($522 \text{ soat/yil} \leq L_{\text{opt}} \leq 530 \text{ soat/yil}$) asosida iqtisodiy va ilmiy faoliyatlar samaradorligini oshirish taklifi Oliy ta'lim tashkilotlarining akademik faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 17-dekabrda 02/01-01-596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida TDIUning 2023-2024 yilda o'rtacha yuklama miqdorini 530 soat belgilanib, univesitining 2023 yilga nisbatan 2024 yildagi moliyaviy faoliyat daromadlari 2,5 foizga, ilmiy faoliyat natijalari 10,8 foizga o'sishi ta'minlangan;

O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida talabalarning akademik faoliyatidagi qo'shimcha xizmat turlarini o'zaro uyg'un boshqarishga asoslangan "Registrator ofisi" tizimini joriy etish orqali boshqaruv xodimlarining foydali ish koeffitsientini oshirish taklifi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining akademik faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 17-dekabrda 02/01-01-596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarning akademik faoliyatidagi qo'shimcha xizmat turlarini o'zaro uyg'un boshqarishning foydali ish koeffitsienti 92,5 foizga oshirishga hamda 2024-2025-o'quv yilida 1250,0 mln so'm iqtisodiy samaraga erishilgan;

O'zbekiston oliy ta'lim tashkilotlarida qabul darajasi, akademik guruhlarni shakllantirishda talabalar soni, shartnomalar miqdori va o'quv yuklamalari hajmining past, o'rta va yuqori ssenariylari asosida 2030-yilgacha ishlab chiqilgan prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan oliy ta'lim tizimida inson kapitali, ilmiy salohiyat va moddiy-infratuzilma omillari o'rtasidagi funktsional bog'liqlikni aniqlash hamda ularning akademik faoliyatning natijaviy ko'rsatkichlariga ta'sir kuchini miqdoriy baholashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazining 2025-yil 17-dekabrda 02/01-01-596-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida istiqbolda oliy ta'lim tizimining rivojlanish dinamikasi, xususan, talabalar kontingenti, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatining o'sish sur'atlari hamda infratuzilma sig'imini kengayish tendentsiyalarini ilmiy asoslash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari asosida 3 ta Respublika va 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruzalar tayyorlangan hamda aprobatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 7 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, 3 ta maqola O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini nashr etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda, shundan 4 ta maqola - Respublika miqiyosidagi, 3 ta maqola - xalqaro jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Umumiy hajmi 164 betni tashkil etadi.